

## SHAYX ABDULQODIR IYSO RAHMATULLOHI ALAYHI HAYOTI VA IJODI

**Xurramxojiev G'iyosiddin Haqqul o'g'li**

*O'zbekiston Xalqaro Islom Akademiyasi Islomshunoslik yo'nalishi 2-kurs magistranti*

Sayyidimiz Abdulqodir Iyso rahmatullohi alayhining to'liq ismlari Shayx Abdulqodir ibni Abdulloh ibni Qosim ibni Muhammad ibni Iyso Aziziy al Halabiy al Shaziliydir. U kishining nasablari Ash shayx Umarul Baaj orqali Rasululloh sallollohu alayhi vasallamning nabiralari Husayn ibn Aliy roziyollohu anhumaga borib taqaladi.

Sayyidimizning tavallud topishlari Suriyaning Halab shahrida 1338-hijriy 1920-milodiy yilga tog'ri keladi. U kishining ota onalari solih insonlardan edilar. Shayx Abdulqodir Iyso rahmatullohi alayhi ota onalarining bag'rida o'zlarining baxtli bolaliklarini o'tkazdi. Yigitlik chog'laridan ilm tahsil qilishga bel bog'ladi. Ko'plab ulamolardan ilm o'rgandi va ko'p kishilar bilan do'stlashdi. U kishi mashhur shayx Muhammad Zammor, shayx Ahmad Mavvodlar bilan do'stlashdilar so'ngra qodiriyya tariqati shayshi bo'lgan Shayx Hasan Hasoniy bilan tanishdilar. Shayx Hasan Hasoniy bilan tanishganlaridan 1949-yildan boshlab 6 yil Shaboniyya madrasasida shariy ilmlarni dars ola boshladilar. Halab shahridagi mashhur katta ulamolardan Shayx Abdulloh Sirojiddin, Shayx Ahmad Kurdiy, Shayx Ahmad Mavvod, Shayx Muhammad Malloh rohimahumulloh kabilardan shariy ilmlarni o'rgandi. Shundan keyin Damashq shahriga ilm o'rganish uchun safar qildi. Ulamolardan ko'plari bilan uchrashdilar, do'stlashdilar.

U kishi Halab shahrining bir mahallasida joylashgan "Hamad" masjidida imomlik vazefasini bajargan. Shayximiz biroz muddat juma namozi ado etiladigan masjidda ham imomlik qilishni udaladilar. U kishining suhbatlariga do'stlari ham oshiq bo'lib u kishini ilm majlislarini tinglash uchun kelar edi. Zero u kishining ilm majlislarida ko'plab yosh vakillar ham ishtirok etar edi. Shayxning maqsadi Shayx Hasan Hasoniyning suhbatlarida o'rgangan narsalari bilan chegaralanib qolishkerak emasdi. Balki tasavvufning chinakam haqiqatiga yetishni hohlardi.

Lekin Shayx Abdulqodir Iyso rahmatullohi alayh o'z maqsadlariga Halab shahrida yeta olmadilar. Va Damashq shaxriga safar qildilar. U yerda ko'plab mashhur ulomalar bilan uchrashdi.

Ko'pincha Shayx Ulug' Shayx Muhyiddin ibni Arobiy rohimahullohning ziyoratlariga borishga taradudlanar edilar. Shoyadki Alloh U kishini shayxlarning biri bilan birlashtirsa yoki U kishini shayxlarning biriga yo'lab qoysa.

Shayx Abdulqodir Iyso rahmatullohi alayh oldin Katta Umaviy masjidda u bilan uchrashgan, ilmuttavhid ilmidan darslarni shahrlab beradigan, shoziliya tariqatining shayxi, Shayx Muhammad Hoshimning suhbatlaridan ilhomlandilar. Va u shayxning ilm majlislariga tashrif buyurdi. Va Shayx Muhammad Hoshimning oldilariga bordilar. U kishiga o'zlarini tanishtirdilar. Shayx u kishiga shunday dedilar: "Insonlarning oxiri bo'lib

keldingiz, Alloh tabaroka va taolaning izni bilan insonlarni avvali bo'lasiz, men sizni uzoq vaqtdan beri kutayotgan edim" dedilar.

Shu so'zlarni eshitgandan so'ng shayxning maqsadi tola to'kis amalga oshdi. Shayx Muhammad Hoshimiy bilan do'stlashib u kishidan o'zi xoxlagan ilm ma'rifatni o'rgandilar. Shayx Muhammad Hoshimiy shayx Abdulqodir lyso rahmatullohi alayhga shaxlikka tayyorligini va ushbu yo'lda bardavom bo'lishga hozirligini bilgach, U kishiga umumiy insonlarning virdlariyu xos odamlarning virdlarini unga o'rgatdi. Shu bilan bir qatorda o'sha virdlarni boshqa murdlarga ham o'rgatishga ruxsat edi. Shundan so'ng shayx Hamad masjidida imom-xatib bo'lib ishlashda davom etdi.

Ko'plab shariat va tasavvuf ilmlarini tahsil olgan shayx hayotlarining qolgan qismini insonlarni ilm-ma'rifatga chaqirish va tasavvufni dasturul amal qilishlari uchun bor kuch g'ayratlarini ishga soldilar.

Vaqt o'tishi bilan Jome (masjid) larini yangilashga kirishdilar. Hatto masjidlari juda obod bo'ldi. U kishining masjidlari tolibi ilmlar va tariqat ahllari doimo qadam bosib turadigan maskanga aylandi. U masjidda hafta davomida ilm majlislari bo'lar edi. Payshanba kuni Xufton nomozidan keyin, juma kuni esa juma nomozidan keyin Rasululloh Sallollohu alayhi vasallamga salovat aytish, zikrlar aytish, turli vaz-nasihatlar qilish odat tusiga kirib qolgan edi.

Shayx Abdulqodir lyso rahmatullohi alayhning dovrug'i ko'plab shaharlarga yoyildi. Turli o'lkalardan insonlar u kishining oldiga kelar edi. U kishining suhbatlariga tolibi ilmlar, tijoratchilar, tabiblar, muhandislar, universiter talabalar kelar edi. Hatto o'sha masjid ilm va nur taraladigan minora bo'ldi.

O'z yurtida taniqli bo'lgan olim tasavvufga bag'ishlangan kitob ta'lif qilishga bel bog'ladi. Shayx Abdulqodir lyso rahmatullohi alayh o'z maqsadlariga erishdilar. Shoziliyya tariqatining o'ziga xos xususyatlarni bayon qiluvchi "Haqiq an at- tasavvuf" kitoblarni yozdilar. Ushbu kitob bir-necha tillarga tarjima qilindi. Ingliz tili, arab tili, turk tillarida bir necha bor nashr qilindi. Bu kitobning bir necha tillarga tarjima qilinishining eng katta sababi turli xil elat vakillarning shayxga bo'lgan muhabbatidan, u kishining ilmlariga tashnaligidan desa mubolag'a bolmaydi.

Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak juda ko'p insonlarning shayxning ziyoratlariga oshiqishlari, U zot o'zlarida shariat, tariqat, haqiqat ilmlarini o'zida jamlaganliklar va shu ilmlarni o'zida ochib beruvchi kitob taklif etilganligidadir.

Shayx Abdulqodir lyso rahmatullohi alayhning ko'p karomatlari zohir edi. Lekin U kishi biror kishiga o'zlaridagi karomatlarni aytib yurishlarini xoxlamas edilar. Va shu bilan bir qatorda o'z birodarlarini ham u kishining karomatlarini ovoza qilib yurmasliklarini takidlar edi. U kishi yana ta'kidlab shuni aytar edilar: "Eng ulug' karomat bu Allohning shariatini qoim qilishdir va shayxning karomatlarning eng ulug'i zalolatdagi va noto'g'ri yo'ldagi nafsini Allohning shariatiga amal qilishlikga undaganligidadir". Shayx Abdulqodir lyso rahmatullohi alayh tariqatni shunday tushuntirar edilar. U kishi aytar edilarki "Tariqat bu shariatga amal qilishlikdir ". Shayxning insonlarga tariqatni tushuntirishlariga

qo'shimcha o'laroq Ahmad Zarruq rohmatallohi alayh tasavvuf haqida shunday aytar edilar : "Tasavvufning barchasi Axloqlardir . Kim senga biror xulqlardan o'rgatsa bilginki u senga tasavvufdan biror narsani o'rgatgan bo'ladi".

Shayx besh yillar chamasi Madinai Munavvarda yashab Muhammad Mustafo sallollohu alayhi vasallam ( muborak qabirlari) bilan yonmayon yashashlik baxtiga ham Alloh taolo u kishiga nasib qildi. So'ngra Iordaniyada Allohning diniga da'vat qilish bilan ham mashg'ul bo'lganlar. Ko'p insonlar u kishining ilmi, tasavvufda komillik darajasiga yetishishlik uchun tariqatlaridan va da'vatlatlaridan foyda oldilar.

Shayx Abdulqodir Iyso rahmatullohi alayh 1412-yil hijriy, 1991-yil milodiy yilda do'stlarini, birodarlarni ziyorat qilish uchun Turkiyaga safar qildilar . U yerda og'ir dardga duchor bo'lib Marash shaxridagi kasalxonaga yotqizildilar. So'ngra Istanbul shahridagi shifoxonadadan biriga ko'chirildilar. Ushbu shifoxanada ishlaydigan shifokorlarlar, xizmatchilar u kishining qattiq og'riqqa chidamliliklarini va oxirgi nafaslarigacha Alloh taoloning zikriga va Allohning itoatiga o'zlarini baxshida qilganliklarni korib juda ham ajablandilar. Bu soniyalar butun umrini ilmga, ma'rifatga, Allohning itoatiga da'vat qilish bilan o'tkazgan buyuk shayxning Alloh taoloning huzuriga rihlat qilish sonyalari edi.

1412-yil hijriy 18-robiul oxir oyi, milodiy 1991-yil 26-oktabr sanasi shanba kuni kechki soat oltalarda Alloh taologa oz omonatlarini topshirdilar . U kishining qabrlari Istanbul shaxridagi Sayyidimiz Abu Ayyub Ansoriy roziyalohu anhuning qabrlarining yonida joylashgan. Alloh taolo Shayx Abdulqodir Iyso rahmatullohi alayhni Firdavs jannati ila mukofotlasin.